



Iste'dodli ijodkor Feruza Jalilova 1961-yilda Toshkent viloyatida tavallud topgan. Bolalar uchun "Mahallamiz bolalari", "Bolajon" nomli she'riy, "Mehr daraxti" kabi hikoyalar to'plami nashr qilingan.



"Tanlov" so'zining o'rniga yana qanday so'zni qo'llaymiz?



G'aroyib tanlov

Feruza Jalilova

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimdamas, ayni kunlarda Toshkentning so'lim mahallalaridan birida Fotima va Zuhra ismli opa-singillar yashar ekan.

Fotima juda odobli, mehnatsevar qiz ekan. Ozoda kiyinar, xonasini sarishta tutar, o'yinchoqlarini o'ynab bo'lgach, javonga chiroyli qilib terib chiqar, bog'dagi rango-rang gul va rayhonlardan uzib, guldonga solib qo'yarkan. Sochlarini silliq tarab, chiroyli turmaklab yurarkan.

Singlisi Zuhra esa uning butunlay aksi bo'lib, besh yoshga kirsam ham erkalgini tashlay demas ekan. Opasi Fotimani sensirar ekan. Buvisi Zuhraga: "Fotima sendan katta, uni opa degin", – desa, "Uni opa desam, u ham meni opa desin", – deya qaysarlik qilar ekan. Oyisiga, ovqatimni yedirib qo'ying, deya xarxasha qilar, kiyimlarini tartibsiz yechib tashlar, sochlarini tarashga ham erinar ekan. Buvisi: "Yuz-qo'llaringni, tishlaringni yuvib kel", – desa, "Kecha yuvdim-ku", – deb turib olarkan. Xonasida shirinliklarning qog'ozlari, qo'l-oyoqlari singan, uzilgan o'yinchog'-u qog'richoqlar sochilib yotarkan.

Bir kuni buvisi qizlarni yoniga chaqirib, "Sarishta qiz" nomli tanlov o'tkazish niyatida ekanini aytibdi. Tanlov shartiga ko'ra kimning xonasidan ko'p chiqindi chiqsa, o'sha tanlov g'olibi bo'lar ekan.

Tanlov boshlanibdi. Buvisining ishorasi bilan opa-singil ishga kirishib ketishibdi. Zuhra bir zumda xonasidan bir chelak chiqindi yig'ibdi. Fotima quruq qo'l bilan chiqibdi va tanlov g'olibi bo'la olmasligidan



xafa bo'libdi. Zuhra esa xursand bo'lgancha buvisining uni g'olib deya e'lon qilishini kutib turibdi.

Lekin tanlov u kutgandek yakunlanmabdi. Buvisi Zuhrani emas, Fotimani g'olib deb e'lon qilibdi.



1. Ertakdagi opa-singillar haqida nima deya olasiz?
2. Siz ularni qaysi ertak qahramonlariga o'xshatdingiz?
3. Sizningcha, nima uchun buvisi "Sarishta qiz" tanlovini o'tkazdi?
4. Nima uchun tanlov Zuhra kutganidek yakunlanmadi?
5. Buvisi nega bunday yo'l tutdi deb o'ylaysiz?
6. Asardan qanday xulosa chiqardingiz?



so'lim – go'zal



1. Fotima va Zuhraga ta'rif bering.
2. Fotima haqida aytilgan gaplarni topib o'qing.
3. Zuhra ta'riflangan gaplarni o'qing.
4. Asar mazmuniga mos reja tuzing.



Asar mazmunini qayta hikoya qilib bering.